



INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

ISSN 3030-3443

Volume 1. Issue 27. December, 2024



OpenAIRE

EXPLORE



JENNY STANFORD
PUBLISHING

ISSN 3030 – 3443

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**

International Scientific electronic journal

**International journal of Science and
Technology**

**International Journal of Science and
Technology**

**FOUNDER:
Muydinov Muhammadzair**

EDITORIAL | EDITORIAL

**Chairman of the Public Council:
M. Z. Muydinov**

**Chief editor
M. Z. Muydinov**

**Responsible editor:
D.B. O'rinboyev - Doctor of
Philosophy in Philosophy**

**Assistant Editor-in-Chief:
K.S. Karimov is a Doctor of
Philosophy in History**

**Responsible for publication:
R. M. Jumanov**

**It is registered on the basis of
certificate No. 202926 issued by the
Information and Mass
Communications Agency under the
Administration of the President of the
Republic of Uzbekistan.**

**Editorial address:
Fergana region, Dangara district,
Uvaisi street, 26
Phone: (+99897) 334-46-74**

**E-mail:
muydinovmuhammadzair@gmail.com**

Members of the editorial board:

A. Sabirdinov - doctor of philological sciences, professor
B. Tokhliyev - doctor of philology, professor
I. Mirzayev - doctor of philological sciences, professor
M. Asadov - doctor of philological sciences, professor
N. Jabbarov - doctor of philological sciences, professor
R. Barakayev - candidate of philological sciences, professor
Y. Odilov - doctor of philological sciences, professor
G. Muradov - doctor of philological sciences, professor
Kh. Jumakulov - Doctor of Physics and Mathematics, Associate Professor.
S. Zokirova - Doctor of Philology
M. Isakova - doctor of philological sciences.
Q. Ergashev - Doctor of Philology.
F. Karimova - doctor of philological sciences.
A. Abdullayev - candidate of technical sciences, associate professor
D. Aroyev - Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Associate Professor.
B. Rajabova - Candidate of Philological Sciences.
Kh. Turakulov - doctor of philosophy in physics and mathematics.
I. Mirsultanov - Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
A. Kamolov - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences.
R. Sultanov - Doctor of Philosophy in Physics and Mathematics.
F. Shirinov - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences.
K. Karimov - Doctor of Philosophy in History
H. Abdupattayev - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences.
B. Khasanova - Doctor of Philosophy in Philology.
M. Djurayev - Doctor of Philosophy in Philology.
M. Yakubjonova - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences.
B. Numonov - Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
O. Akhmadjonova - Doctor of Philosophy in Philology.
G. Oripova - Doctor of Philosophy in Philology.
S. Usmonova - Doctor of Philosophy in Philology.
F. Torayev - Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
G. Ikromova - Doctor of Philosophy in Philology.
U. Maksudov - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences.
Z. Rahmonova - Doctor of Philosophy in Philology.
E. Kurbanova - doctor of philosophy in Philology.

KICHIK YOSHDAN BOLALARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH SHAKLLARI VA VOSITALAR

Abdumajidova Muattarxon Akramjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

maktabgacha ta'lim 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada bugungi zamonaviy oilalarda uchraydigan ijtimoiy muammolardan biri qadriyat masalasi alohida o'rin egallagan. Oila, oiladagi ekologik va axloqiy tarbiyaning muhim jihatlari e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga ekologik tarbiyaning umuminsoniy manfaatlar nuqtayi nazaridan asoslashga bo'lgan intilish maqolaning asosiy mazmunini kashf etgan. Zamonaviy oilalarda qadriyat masalasining muhimligi bugunda o'z ifodasini topib borayotgani ekologik axloqiy dunyoqarashni shakllantirishga bo'lgan zaruratni ifoda etmoqda.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, axloq, tarbiya, zamon, oila madaniyat qadriyat, maskan, ekologik ong, ekologik borliq, ekologik uyg'unlik

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator

muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy va ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, milliy va ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan bugungi globallashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish orqali oilada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish, ko'rsatish, o'rgatish, namuna bo'lish kabi ta'sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Oilada milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [1] degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi. Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tanazzulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi. Xo'sh nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga e'tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishga qanday omillar to'sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo'ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo'lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda. Mustaqillik yillarida oilaviy tarbiya masalasi tub o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bir tomondan milliy tarbiya jarayonining mazmuni, maqsadlari, usullari hamda strategiyasi o'zgargan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarbiyaning milliy mohiyatini tub modernizatsiya qilish, qayta qurish, qayta anglash jarayonlari boshlandi. Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bu oilaviy tarbiyada islom ta'limotiga ham asoslanishdan iboratdir. Zero, "...oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda ulkan ahamiyat kasb etmoqda". Zamonaviy oila – hayotda sog'lom turmush tarzi, yuksak madaniyati, kasb darajasi va ijtimoiy faoliyati bilan aholi o'rtasida namuna ko'rsatadigan oiladir. Har bir jamiyatning dastlabki ilk ijtimoiy bo'g'ini hisoblangan oila shaxs shakllanishida eng asosiy maskandir. Shaxs kamoloti o'z navbatida oilaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyat oiladan boshlanadi. Oilaning sog'lomligi va oilaviy muhitning qanday darajada bo'lishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham oilani mustahkamlash, uni sog'lomlashtirish muammolari

jamoatchilikning e'tiboridagi muhim muammolardandir. Zamonaviy oila qurishning asosiy omillari orasida oila institutini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish masalasi muhim hisoblanadi, chunki aynan bu omil oilani mustahkamlashga zamin yaratadi. Qadim zamondan mutafakkir va oilashunos olimlar tomonidan ushbu muammolar muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, oila muammolari, shaxslararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligi bois o'tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham oila va oilaviy muammolarni hal etish masalalariga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin va boshqalar oilaviy munosabatlarning shaxsga ta'sirini uqtirib o'tganlar. Xorij olimlaridan D.Adams, A.Gary, A.King, A.Lynda, W.Daniellar tomonidan oila muhitining inson hayoti va faoliyatiga ta'siri empirik jihatdan o'rganilgan. Oilasi bilan yashaydigan 163 nafar ishchi-xodimlarda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ularning hayotdan qoniqishi, xizmat sohasida mavqeyining ortishi, oiladagi rollarini to'g'ri bajarishida uning oilasidagi munosabatlar ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi munosabatlar ta'sirida shaxsning oilasida his etadigan emotsional dalda omili shu oilaning mustahkam bo'lishi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatdi. Psixologiya fanlari doktori, professor G'.Shoumarovning ilmiy maqola, risola va uslubiy ishlarida, xususan, "Oila psixologiyasi" darsligida oila psixologiyasining umumiy asoslari, oila tasniflanishi, nikoh oldi omillari xususiyatlari va ularning nikohning mustahkamligiga ta'siri, oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi, oilaviy nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlari, o'zbek oilasining o'ziga xos psixologik jihatlari ko'rsatib berilgan. Bizning fikrimizcha, o'zbek oilasiga xos psixologik xususiyatlarning ijobiy tomonlarini zamonaviy oila modelini shakllantirish ishida qo'llash maqsadlidir. Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova tadqiqotlarida o'zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillarida namoyon bo'lishi empirik jihatdan tadqiq etilgan va oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning nazariy modeli asosida oila a'zolari orasidagi munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'siri, shart-sharoitlari va sotsial-psixologik omillari yoritilgan. Bu nazariy model asosida zamonaviy oilani yaratish va oilani rivojlantirish mumkin. Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmanova "Oila manaviyati – milliy g'urur" ilmiy qo'llanmalarida oilaning muqaddasligi uning jamiyat hayotidagi o'rni, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan bog'liq muammolar yetarlicha o'rganilgan, bu orqali zamonaviy oilada oilaning yashash shart-sharoitiga, tarbiyaviy, ma'naviy, tibbiy omillariga e'tibor ko'rsatish muhim ekanligini inobatga olish zarur ekanligini ko'ramiz. Pedagogika fanlari doktori, professor M.Maxmudova "Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi" mavzusidagi ilmiy ishida mamlakatimizning kelajagi oilalarda kamol topayotgan yoshlar tarbiyasiga bog'liqligi ilmiy va ishonchli dalillar asosida yoritib berilgan. Bizning nazarimizda, bu borada yoshlarning oila qurish muammosiga jiddiy qarash kelajakda ular oilasining namunali, mustahkam bo'lishiga asos yaratadi. Pedagog

olima M.Inomova “Oilada bolalarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari” mavzusidagi ilmiy izlanishida oilada bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari yetarlicha yoritib berilgan. Pedagog olima A.Muxsiyeva “Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari” mavzusidagi ishida oilada farzandlarni tarbiyalashda milliy tarbiyaning oʻrni va ahamiyatini hamda milliy tarbiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan. Darhaqiqat, barcha davrlarda olimlar oilaning jamiyatdagi oʻrniga katta ahamiyat berganlar. Chunki jamiyatning eng katta boyligi oiladir. Oila sogʻlom va mustahkam boʻlsa, jamiyatda tinchlik va farovonlik hukm suradi. Demak, zamonaviy oilani rivojlantirish, yaratishda asosiy omillardan biri sifatida yuqoridagi ilmiyamaliy tavsiyalardan foydalanish maqsadli boʻladi. Sharq xalqlarida qadimdan kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzatda boʻlish, insofli boʻlish, rostgoʻylik, xushmuomalalik, mehmondoʻstlik kishining odob-axloqini koʻrsatib beruvchi qoidalar sifatida amal qilinib keladi. Bu axloq qoidalari har bir shaxsda toʻliq namoyon boʻlgan taqdirdagina u maʼnaviy barkamol shaxs hisoblanadi. Demakki, u jamiyat oldidagi, kishilar oldidagi insoniylik burchini ado etgan hisoblanadi. Burch muhim axloqiy-maʼnaviy qadriyat hisoblanib, har bir shaxsning jamiyat oldidagi fuqarolik, ota-ona oldidagi farzandlik, xalq, millat oldidagi insonparvarlik, jamoatchilik oldidagi odamiylik vazifalarini bajarish demakdir. Burch – ado etilishi majburiy boʻlgan insoniy vazifalar va insoniylik yuzasidan bajarilishi mumkin boʻlgan axloqiy qoidalarni oʻz ichiga qamrab oladi. Ota-onaning farzand oldidagi, jamiyat oldidagi burchi, farzandning ota-ona oldidagi burchi, insoniyatning oʻtmish merosini asrash va kelgusi avlodlarga etkazish burchi, millat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchi, tabiatni asrash burchi, vatan oldidagi burch majburiy vazifalardir. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari “Qobusnoma”da zikr etilishicha, “...farzandga yaxshi ot qoʻyish, farzandni yaxshi doyaga topshirish, sunnat qilish, toʻy-tomosha berish, ilm va kasb-hunar oʻrgatishdan iboratdir”. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, ota-ona farzand tarbiyasida jamiyat oldida ham javobgardirlar. Har tomonlama yetuk farzandni tarbiyalash ota-onaning asosiy, majburiy burchidir. Ota-onani hurmat va izzat qilish, keksayganda moddiy taʼminlash, ular nasihatiga quloq tutish va uni soʻzsiz ado etish farzandning ota-ona oldidagi burchi hisoblanadi. Farzand el-yurt oldida ota-ona obroʻsi, qadr-qimmatini koʻtarishi lozim. Farzand, ayniqsa, otani hurmat qilishga, topshiriqlarini bekam-u koʻst bajarishga majbur. Uning koʻnglini ogʻritish aslo mumkin emas. Oqil farzand ota qadrini yuksak tutadi. Xalqimiz “Ota qargʻishi oʻq” deb bejiz aytmagan. Ulamo-yu fuzalolarimiz fikriga koʻra: ota farzand uyidagi istagan narsani olishi mumkin ekan. Farzand esa ota uyidan uning ruxsatisiz hech narsani olishga haqqi yoʻq ekan. Mana, farzandning ota-ona oldidagi burchi, haqqi nima bilan belgilanadi? Ulamolarning bayon qilishicha: “Ota-onaning farzandiga nisbatan saksonta haqqi bor ekan. Ularning qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi oʻlgandan keyin amalga oshiriladi. Tiriklik chogʻidagi qirqta haqqning oʻntasi tanga, oʻntasi tilga, oʻntasi dilga va oʻntasi molga taalluqlidir”⁶⁴. Oilada kelinning ham qaynona-qaynota oldidagi burchi farzand burchi demakdir. Xalqimizning maʼnaviy merosi hisoblanadigan mehnatsevarlik,

mehr-oqibatlilik, birodarlik, insonparvarlik, mardlik, halollik, iymon-e'tiqodlilik kabi fazilatlarini, Abu Rayhon Beruniy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad al-Farg'oni, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband va shu kabi mutafakkirlarimizning ma'naviy merosini avaylabasrash, asrlar davomida qadriyat darajasiga ko'tarilgan milliy ma'naviy merosni kelajak avlodga etkazish har birimizning jamiyat oldidagi, insoniyat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchimizdir. Vatan – bu har bir kishining tug'ilib o'sgan muborak joyi, mahallasi, qishlog'i, shahri, ona yurtidir. U yashayotgan zamindir. Mana shu vatanni himoya qilish, vatanning gullab-yashnashi uchun halol mehnat qilish, kerak bo'lsa, vatan himoyasi uchun jonini fido qilish O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroning burchidir. Insonning eng katta boyligi bu – Vatandır. Vatanni sevish deganda, Vatanning milliy tilini sevish, davlat ramzlarini sevish, milliy qadriyat va urf-odatlarini qadrlash, tinchligi va osoyishtaligi uchun jon kuydirish kabilar tushuniladi. Darhaqiqat, Vatanni sevmok iymondandir. Ya'ni, iymoni but, ongli, Vatan tushunchasini to'la anglab etgan, Vatan uchun butun kuch-g'ayratini bag'ishlagan, Vatan ilm-ma'rifati yo'lida mehnat qilayotgan, o'z Vatani bilan g'ururlanadigan insongina Vatan oldidagi burchini ado etgan bo'ladi. Marhumlarni xotirlash bugungi avlodning farzandlik burchidir. Vatan tarixini bilish, boylklarini ko'z qorachig'iday saqlash, Vatan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish, halol mehnat qilish, ma'naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini o'rganish va avaylab-asrash asosiy vazifasidir. O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shishda bor kuch-imkoniyatlarini sarf etish har bir fuqaroning burchidir. Ota-ona, jamoatchilik va ustoz-murabbiylarning asosiy burchi bugungi jamiyat talablariga mos ma'naviy va jismoniy barkamol, milliy ong va tafakkuri shakllangan shaxslarni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir. Balog'at yoshidagi yigitlarning asosiy burchi mamlakatimizning milliy armiyasida xizmat qilib, Vatan tinchligi, osoyishtaligini saqlash, uni har qanday tajovuzlardan, ichki va tashqi dushmandan asrashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Vatan oldidagi asosiy burchlari mamlakatimiz Qomusi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48, 49, 50, 51, 52-moddalarida belgilab berilgan. Ya'ni, ular "Fuqarolar Konstitutsiya va Qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir, fuqarolar Qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar",⁶⁵¹ – deyilgan. Farzandlik burchi yoshlikdan bilim olib, hunar o'rganib, mehnat qilib o'zini, oilasini, bola chaqasini, qarigan ota-onasini ta'minlashdir. Ota-ona dunyoda abadiy yashamaydi, ota-onadan qolgan meros qancha ko'p bo'lsa ham bir umr ishlamay, tekinxo'rlik bilan hayot kechirishga yetmaydi. Hayotda eng ko'p qadrlanadigan narsa halol mehnat bilan topilgan boylkdir. Ota-onaning hurmatini joyiga qo'yib, obro'sini baland tutish ham milliy ma'naviy qadriyatlarimizdan biridir. Axil oilada hal qiluvchi so'zni ota aytadi. Ota, albatta, oila a'zolarining fikrini va manfaatini e'tiborga oladi. Shu sababli ham milliy

an'analarimizda otadan oldin yoki ota o'rnida so'zlash, so'zini bo'lish beodoblik hisoblangan. Ota-ona qilgan pand-u nasihatlarini doim yodda saqlashi kerak bo'lgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytganda, oilada bola tarbiyasi har qanday zamon va makonda ham davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan ustuvor masala hisoblangan. Bu borada zamonaviy oilada voyaga yetayotgan farzandni oila qadriyatlarini yo'qotmagan holda jamiyatning faol fuqarosiga aylantirish, nafaqat ota-ona, balki har bir inson o'z burchi va mas'uliyatini chuqur his etishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akramova F.A. "Oilada sog'lom psixologik muhitni yaratishning ijtimoiy-psixologik asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014.
2. Амир Темур. Тузуки Темурий. – Б. 7-8.
3. "Ma'rifat" gazetasi. 2015-yil 6-iyun 45-son, – B.
4. Kuronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
5. Shoniyo'zov K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: "Sharq", 2001.

International Journal of Science and Technology

Volume 1, Issue 27, December. 2024:

1. СУБЪЕКТ РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СЛУШАТЕЛЕЙ
<i>Jaynarov Obid Shavkatovich</i>
4-page
2. SAYYID SHARIF JURJONIYNING «TA'RIFOT» ASARIDA MUALLIFNING YONDOSHUVLARI
<i>Abdullayev Davronbek Dilmurod o'g'li</i>
11-page
3. OQSILLAR VA ULARNING XOSSALARINI O'RGANISHDA FUNKSIONAL SAVODXONLIK
<i>Alimova Farzona Abdukamalovna, Gubayeva Aziza Ismatillayevna</i>
18- page
4. KICHIK YOSHDAN BOLALARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH SHAKLLARI VA VOSITALAR
<i>Abdumajidova Muattarxon Akramjon qizi</i>
23- page
5. CREATING AN OPTIMIZED IMMUNE-NETWORK MODEL FOR PRODUCTION RISKS.
<i>Sodiqova Madina Hujayorovna, Diyorov Hujayor Sodikovich</i>
29- page
6. ISHSIZLIK, UNING KO'RSATKICHLARI VA TAHLILI
<i>Axmedova Farangiz</i>
40 - page
7. MOLIYAVIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI
<i>Ismoil ISRAILOV</i>
45 - page
8. KIBERBULLYING TAHDIDINING YOMON OQIBATLARI VA UNING OLDINI OLISH
<i>Atajonov Botirbek Bahodirjonovich, Murodov Akobir Raxmonjon o'g'li</i>
50 - page
9. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA OLIMPIADA MASALALARINI YECHISH USULLAR
<i>Annaeva Chemen Xemra qizi</i>
56- page
10. BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIGA BIOKIMYO FANINI O'QITISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR
<i>Madinaxon Muxammadjonova Anvarjon qizi</i>
59- page
11. PARAMETRIK NOANIQLIKLAR VA TASHQI G'ALAYONLAR MAVJUDLIGI SHAROITIDA ADAPTIV BOSHQARISH TIZIMLARI BOSHQARISH QURIMALARINI SINTEZLASH ALGORITMLARI
<i>Botirov To'lg'in Vafqulovich, Sobirova Anora Zoyirovna</i>
61- page
12. "OILAVIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI".
<i>Anvarova Azizabonu Anvar qizi</i>
67 - page
13. ISPAN TILIDA SO'ROQ GAPLARNING NUTQIY TUZILMALAR KOMMUNIKATIV TURKUMIDAGI O'RNI.
<i>Shamaxmudova Aziza Furqatovna, Fayziyeva Iroda Xusniddin qizi</i>
73- page

14. BEXABITIV NUTQIY AKTLARNING SEMANTIK VA PRAGMATIK MUNOSABATI <i>Shamaxmudova Aziza Furqatovna, Allamuratova Shoxsanam Baxodirovna</i>
76- page
15. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISHDA INNOVATSION METODLAR <i>Radjabova Gulnora Xakomovna</i>
79- page
16. QIMMATLI UNIVERSAL DONLI EGIN - AMARANT O'SIMLIGI O'G'ITLASH ME'YORLARINING O'SISH, RIVOJLANISH VA HOSILDORLIKKA TA'SIRI <i>Ergasheva Madina To'liqinjon qizi</i>
84 - page
17. FERTIGATSIYA VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI <i>Yo'ldashova Xayriniso Eshmamatovna</i>
90- page
18. KIBERBULLING: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI YASHIRIN XAVF <i>Atajonov Botirbek Bahodirjonovich, Murodov Akobir Raxmonjon o'g'li</i>
94- page
19. ЖАНУБИЙ КОРЕЯ ЧИҚИНДИЛАР БИЛАН ИШЛАШ ТИЗИМИ АСОСЛАРИ ВА ЎЗБЕКИСТОН УЧУН ТИЗИМДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ <i>Мейлиева Д.Ў., Мухаммедов М.М</i>
100- page
20. BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI <i>Valixonova Nigora, Kenjayeva Maftuna</i>
111- page
21. QATTIQ JISMLARNING MASSA MARKAZINI TOPISHGA DOIR MASALALARNI YECHISH USULLARI VA AHAMIYATI <i>Tolibova Oygul Idiboyevna</i>
118- page
22. QUYOSH ENERGIYASIGA O'TISH DAVR TALABI <i>Elmurodov Dilshodbek</i>
123- page
23. NAZARIY MEXANIKANING ASOSIY TAMOYILLARI VA NAZARIY MEXANIKADA LAGRANJ FUNKSIYASINI QO'LLANILISHI <i>Toxirova Mashhura Murodjon qizi</i>
127- page
24. TALABALARINING KASBIY MALAKALARINI SOHAVIY MATNLARNI O'QISHNI O'RGATISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNINING TAHLILI (NOFILOLOGIK YO'NALISHLAR MISOLIDA) <i>Qahhorov Sardorbek Abdulxodi o'g'li</i>
132- page
25. CdTe/ZnTe KVANT NUQTALARNING FOTOLYUMENESSENSIYA XUSUSIYATLARIGA RADIATSIYANING TA'SIRI <i>M.B.Sharibaev ,SH.Q.Qalandarova</i>
135- page
26. TA'LIM SIFATI- MAMLUKAT ISTIQBOLINI BELGILOVCHI MEZON <i>Qudratova Mardona Alimardon qizi</i>
139- page
27. TASAVVUF VA YASSAVIYLIK TARIQATI <i>Rajavaliyev Boburjon Dilshodjon o'g'li</i>
142- page
28. WEB ILOVALARNI ZAMONAVIY TALABLARGA MOSLASHTIRISH ORQALI MUSTAQIL TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

<i>To'rayev Shuxratjon Farmonovich, Avazxonova Maftuna Anvar qizi</i>
149- page
29. ДРЕВНЯЯ ИСТОРИЯ МИГРАНТНЫХ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ: ОТНОШЕНИЯ КНОМИГРАНТОВ И ПОСЕЛЕНЦЕВ
<i>Султонова Хусанбой</i>
155- page
30. TURKISTONDA JADID MAKTABLARI FAOLIYATI TARIXI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR
<i>Usmonova Yulduz</i>
163 - page
31. THE SEMANTIC-STYLISTIC FEATURES OF ENGLISH PROVERBS
<i>Kayumova Adiba Lazizovna, Jalolova Shakhnoza Mukhamedjanovna</i>
167- page
32. MODALLIK VA INGLIZ MODAL FE'LLARINING TIPOLOGIK TALQINI
<i>Abdusalimov Abdulaziz Abdimalal o'g'li, Jalolova Shaxnoza Muhamedjanovna</i>
176- page
33. KOXLEAR IMPLANT O'RNATILGAN BOLALARNI NUTQINI REABILITATSIYA QILISH
<i>Yakubova Asalxon</i>
182- page
33. STEAM O'YIN USULLARINI MAKTABGACHA TA'LIMDA QO'LLASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI
<i>N.O.Saidova, Z.Pirmatova</i>
185- page
34. ХИМИЧЕСКИЕ И БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МУКИ ИЗ ТЫКВЕННЫХ СЕМЕЧЕК
<i>Каримова Шехроза Маджитовна</i>
188- page
35. OZIQ-OVQAT SANOATIDA "HALOL" STANDARTINI QO'LLASH VA UNIRIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
<i>Z.Suvonov</i>
191- page
36. НАПРАВЛЕНИЯ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИИ РЕСУРСОВ В ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОМ ХОЗЯЙСТВЕ
<i>Мелиев Бахтиёр Уктамович</i>
196- page
37. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБЛАЧНОЙ ПЛАТФОРМЫ "VOOV MEETING" В ПРЕПОДАВАНИИ HSK 4-5 СТУДЕНТАМ ЯЗЫКОВЫХ КУРСОВ
<i>Башируллаева Рухсора, Шасаидова Лола Шамаксудовна</i>
203- page
38. CLASS STRUGGLES AND ECONOMIC DISPARITIES: A STUDY OF SOCIAL INEQUALITY IN SPAIN, 1918-1936
<i>Муратбаева Саёра Жаксылык кызы</i>
209- page
39. ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ПРОДУКТЫ КАК НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ПИЩЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
<i>Каримова Шехроза Маджитовна</i>
217- page
40. ПОЛУЧЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ АНТИКОРРОЗИОННОЙ СМАЗКИ-ПОКРЫТИЯ НА ОСНОВЕ НИЗКОМОЛЕКУЛЯРНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА
<i>Зоирова Азиза Иргашевна</i>
221- page
41. ИСЛОМ МОЛИЯСИНИНГ АНЪАНАВИЙ МОЛИЯДАН ФАРҚЛАНИШИ

Чориев.О.О
223- page
42. УСТАРЕВШИЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ ФОРМЫ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ
Шодиёрова Азиза Зафар кизи
226- page
43. ПУШКИН В ХХІ ВЕКЕ": АКТУАЛЬНОСТЬ ИДЕЙ И МОТИВОВ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ
Шодиёрова Азиза Зафар кизи
229- page
44. КОНЦЕПЦИЯ ЦЕННОСТЕЙ ОРГАНИЗАЦИИ КАК ИНСТРУМЕНТ МОТИВАЦИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА
Югай Алсу Фархадовна
232- page
45. ETHNOGRAPHIC STUDIES ON CERAMICS PRODUCTION IN CENTRAL ASIA
Berdibekov Mukhammed
235- page

